MUNOJATXON YO'LCHIYEVA

# AN'ANAVIY YAKKA XONANDALIK



M[11]

У-85

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**MUNOJATXON YO'LCHIYEVA**

# AN'ANAVIY YAKKA XONANDALIK

Ta'lim yo'nalishi: 5150602 – Vokal san'ati: an'anaviy xonandalik

*Oliy ta'lim muassasalari uchun*
*o'quv qo'llanma*

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI
Inv. № 1805
AXBOROT RESURS MARKAZI

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2018

**KBK 85.314(5O‘)**
**Y 85**

**Yo‘lchiyeva, Munojatxon.**
**An’anaviy yakka xonandalik.** Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T., «Musiqa» nashriyoti, 2018. – 74 b.

*Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 201- yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

***Taqrizchilar:***

**Mahmudjon TOJIBOYEV** – An’anaviy xonandalik kafedrasi dotsenti, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi

**Beknazar DO‘STMURODOV** – O‘zbekiston davlat San’at va madaniyat instituti “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi mudiri, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi

Oliy musiqa ta’limi muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanmada An’anaviy yakka xonandalik san’atining mazmuni, tarixi va ijrochilik uslublari tizimli tahlil qilib berilgan.

В данном учебном пособие анализирован вопросы традиционное пения и предназначено для студентов высших музыкальных учебных заведениях.

This manual is intended for students of traditional performants department of High Educational Institutes. In this manual you can find history and analyses of performing style.

**KBK 85.314(5O‘)**
**UO‘K 784.1**

ISBN 978-9943-5090-3-0

© “Musiqa” nashriyoti, 2018.
© M.Yo‘lchiyeva, 2018.

# KIRISH

**"An'anaviy yakka xonandalik" fani**. O'zbekiston oliy musiqa ta'limida professional kadrlar tayyorlash jarayonida yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab borishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada "O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da musiqa san'atini yanada rivojlantirishga oid yangi vazifalar qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-sonli "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "musiqa ... san'atini tubdan rivojlantirish" vazifasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi va davlat ta'lim standartlarida kasbiy yetuk, axloqiy barkamol va ijtimoiy faol kadrlarni voyaga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Buning uchun zamonaviy yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratib borish taqozo etiladi. "An'anaviy xonandalik" namunaviy o'quv dasturi va davlat ta'lim standartlariga muvofiq tayyorlangan ushbu "An'anaviy yakka xonandalik" o'quv qo'llanmasi ana shu ehtiyojlarning hosilasi sifatida yuzaga keldi. O'quv qo'llanma "An'anaviy yakka xonandalik" kursining ishchi o'quv dasturi asosida tuzildi va unda bu boradagi ilmiy-amaliy tajribalar umumlashtirildi. "**An'anaviy yakka xonandalik**" fani "An'anaviy xonandalik" umumiy fanining tarkibidagi ixtisoslik fani bo'lib, uning Ishchi o'quv dasturi "An'anaviy xonandalik" fanining namunaviy dasturi asosida shakllantirilgan.

**Fanning maqsadi**. "An'anaviy yakka xonandalik" fani bo'lajak oliy ma'lumotli yakka xonandalarga kuylash asoslari, yakkaxonlik ijro uslublari va yakka xonandalik ijodiy maktablari bo'yicha chuqur bilim berish hamda ularning ijrochilik mahoratlarini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifalari**. "An'anaviy yakka xonandalik" fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– bo'lajak oliy ma'lumotli yakkaxon xonanda – mutaxassislarga kuylash asoslari bo'yicha chuqur nazariy bilim berish;

– bo'lajak mutaxassislarni yakkaxon xonandalik ijro uslublari va an'anaviy ijodiy maktablari bilan tanishtirish;

– bo'lajak yakkaxon xonandalarning yakkaxon ijrochilik san'ati tarixi, zamonaviy yo'nalishlari va istiqbolli asoslari bo'yicha bilimini oshirish;

– bo'lajak mutaxassislarning ijod qilish, ashulalarni tanlash va o'zlashtirish, kompozitor va bastakorlar bilan ishlash, sozandalar bilan hamkorlik qilish mahoratini shakllantirish;

– bo'lajak yakkaxon xonandalarning individual kuylash uslubiga ega bo'lish va xonandalikning nazariy asoslarini chuqur o'rgatish.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tuzishda ana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqildi.

**Fan bo‘yicha qo‘yiladigan talablar**. “An’anaviy yakka xonandalik” fani bo‘lajak yakkaxon xonanda – mutaxassislarga davlat ta’lim standartlari va fanning xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi talablarni qo‘yadi:

– an’anaviy yakka xonandalik asoslari bo‘yicha nazariy bilimlarni egallash;

– an’anaviy yakka xonandalik ijro uslublari, tarixi, ijodiy maktablari, mashhur namoyandalari, zamonaviy yo‘nalishlari va istiqbolli asoslarini bilish;

– o‘ziga xos kuylash va ovoz ustida ishlash ko‘nikmasi, malakasi va mahoratiga ega bo‘lish hamda individual ijro uslubini shakllantirishga harakat qilish;

– ijro qilish, bastakor va sozandalar bilan ishlash mahoratiga ega bo‘lish hamda tinglovchilar bilan yuksak madaniyatli asosda munosabatda bo‘lish malakasini egallash.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada ana shu talablar hisobga olindi.

**O‘quv qo‘llanmaning tuzilishi**. Mazkur “An’anaviy yakka xonandalik” o‘quv qo‘llanmasining tuzilishi asosiy mavzular, ularning rejasi, matni, mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar, mavzular bo‘yicha tegishli adabiyotlar, mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar, testlar, o‘zlashtirish va ijro mahoratini oshirish uchun mo‘ljallangan namunaviy ashulalar va ularning natijasi hamda tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

O‘quv qo‘llanma mavzular tahlili, har bir mavzu bo‘yicha mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar, mustaqil ishlash uchun tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilova tuzilishidan iborat. Unda quyidagi masalalar tahliliga asosiy e’tibor qaratiladi:

– “an’anaviy yakka xonandalik” tushunchasining xususiyatlari va obyekti;

– an’anaviy yakka xonandalik ijrochiligining tarixiy takomili;

– an’anaviy yakka xonandalik uslubi;

– nazariy va amaliy tavsiyalar.

O‘quv qo‘llanmadan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida, shuningdek mustaqil ishlash va jo‘rnavoz bilan individual dars jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quv qo‘llanmaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

## 1. An'anaviy yakka xonandalik xususiyatlari

*Kalit so'zlar:* an'anaviy, yakka, xonandalik, ta'rif, manba, xususiyat, umumiy, asar, ilmiy, amaliy, ijro, uslub.

O'zbekiston musiqa san'atida an'anaviy yakka xonandalik eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar xulosaga kelishganidek, jahon xalqlari qatorida o'zbek xalqi musiqa san'ati ham yakka ovoz (monodiya) hodisasidan kelib chiqqan [1,10-b.].[1]Unga ko'ra, qadim zamonda inson o'z tovushini anglagach, o'zicha xirgoyi qilgan, asta-sekin bu xirgoyi sayqallanib ovoz tusini olgan va natijada bir shaxsning o'z his-tuyg'ularini kuylash paydo bo'lgan. Buning takomili natijasida **Yakka xonandalik** (yakka ovozda kuylash) tarkib topgan va takomillashuv davomida **an'anaviylik** (tajribani ikkinchi kishiga uzatish) tusini olgan. Shu tariqa musiqa san'atimizda o'ziga xos yo'nalish yakka xonandalik san'ati tabiiy-tadrijiy ravishda kelib chiqqan [5,61-b.]. Bu o'rinda mazkur san'atning asosiy tushunchalari mazmunini anglab olish kerak bo'ladi.

"An'anaviy yakka xonandalik san'ati" tushunchasining *an'anaviy* iborasi "bir tomondan meros qoldirish va ijtimoiy vorislikni, ikkinchi tomondan esa yangilanish va navqironlikni" anglatadi [9,17-b.]. Buning ma'nosi shuki, yakka xonandalik san'atida tajribali san'atkor (kuylovchi) o'zining ijro mahorati sirlarini yosh iste'dodli shaxsga uzatadi, bu yosh iste'dod yakka xonandalik asoslariga vorislikni qabul qiladi va ayni paytda, har bir yakka xonanda bu san'atning zamon va makon talablariga mos ravishda rivojlanib borishini ta'minlaydi, bu an'anaviylikning navqironligidir (hamisha amalda bo'lishidir). Shu tariqa yakka xonandalik san'atida davomiylik ta'minlanadi. Demak, yakka xonandalik san'atida an'anaviylik bu:

– yakka ovozda kuylash asoslarini ajdodlardan avlodlarga uzatib borish;
– sohada vorisiylikni ta'minlash;
– bu san'at turini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borishdir.

Yakka xonandalik – kuylash san'atining negizi bo'lib, unda muayyan ashula (qo'shiq) bir shaxs tomonidan yakka ovozda ijro etiladi. Musiqa san'atiga oid adabiyotlarda yakka xonandalikning bir necha xususiyatlari tahlil qilib o'tilgan [4;5;11-b.]. Ular tahlil qilinganida asosiy xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, yakka xonanda bo'lish uchun:

– talab darajasida ovoz diapazoniga ega bo'lishi;
– musiqiy eshituv va kuylash layoqatining mavjud bo'lishi;
– muayyan ko'nikma va malakani egallashi kerak.

Aslida har bir shaxsda bu xususiyatlar mavjud bo'ladi, yakka xonanda bo'lish uchun esa mazkur xususiyatlarni yoshlikdan tarbiyalash taqozo etiladi. Yakka xonanda uchun eng asosiy masala ovozdir, bunday ovoz "odamning ovoz a'zolari yordamida musiqali tovushlarni hosil qilish qobiliyati" deb ataladi [9, 287-b.]. Yakka xonandaning ovozi o'zga odamlar ovozidan aynan musiqali tovush ekanligi bilan farqlanadi.

---

[1] Eslatma: Ishoralar "Foydalanilgan adabiyotlar" ro'yxati bo'yicha beriladi.

Ilmiy xulosalarga ko‘ra, insonning ovozi 12–13 yoshdan boshlab to‘liq hajmga (1,5 oktavaga) erishadi [5, 14-b.]. Mana shu davrdan boshlab bo‘lajak yakka xonanda ovozi professional asosda tarbiyalanib va rivojlantirilib boriladi. Shu jihatdan respublikamizda bolalar musiqa va san’at maktablarining o‘qituvchilari, mutaxassislari hamda jo‘rnavozlari bo‘lajak yakka xonandalarning ovozi tarbiyasiga ilmiy-professional asosida yondashishi taqozo etiladi.

Professional yakka xonanda bo‘lish uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan ovoz sohibi bo‘lish kerak:

1) ovozning jarangdor, shirador va uzoq sadolanishga ega bo‘lishi;

2) ovoz diapazoni 2 oktava bo‘lishi va sadosining ravon hamda tekis chiqishi;

3) xonandaning o‘z ovozini kuylash jarayonida boshqara olishi.

Bunday ko‘nikma va malakaga erishish uchun har bir shaxsda imkoniyat mavjud bo‘ladi. Bu imkoniyatni ro‘yobga chiqarish professional musiqa ta’limi jarayonida kechadi.

An’anaviy yakka xonandalikning san’atligi shundaki, unda muayyan she’riy matn ashula (qo‘shiq) shaklida musiqa vositasida tinglovchiga yetkaziladi. Tinglovchi xonandaning kuylashidan ruhiy-ma’naviy zavq oladi, muayyan fikr yoki g‘oyani uqadi hamda kuylovchiga munosabat bildiradi. Aynan mana shu nuqtada an’anaviy yakka xonandalikning o‘ziga xos san’at ekanligi namoyon bo‘ladi.

An’anaviy yakka xonandalikning ikki turi mavjud: 1) havaskor yakka xonandalik; 2) professional yakka xonandalik. Havaskor yakka xonanda kuylashning dastlabki asoslarini o‘zlashtirib, an’anaviy ashulalarni (qo‘shiqlarni) ijro etish bilan cheklanadi. Professional yakka xonanda esa musiqa ta’limini olgan, yakkaxon yoki ansambl tarkibida an’anaviy ashulalarni (qo‘shiqlarni) talab darajasida ijro etuvchi hamda ijod bilan shug‘ullanuvchi san’atkordir. Bugungi kunda mamlakatimizda havaskor va professional yakka xonandalik uzviy rivojlanib bormoqda. Ayni paytda, professional yakka xonandalikni rivojlantirib borish taqozo etiladi. Chunki jahon xalqlarining hozirgi rivojlanib borish jarayoni har bir soha qatorida musiqa san’ati yo‘nalishlarini taraqqiy ettirishda professionalizm omiliga asosiy e’tiborni qaratmoqda.

Yakka xonanda (ashula ijrochisi) uch mutaxassis bilan o‘zaro aloqada ijro mahoratini hosil qiladi: 1) ta’lim jarayonida ustoz bilan; 2) ashula matni muallifi bilan; 3) bastakor (kompozitor) bilan. Bu ijodkor yakkaxon ashula ijrochilariga xos xususiyatdir va ayni paytda, ko‘pchilik yakka xonandalar an’anaviy ashulalarni ijro qilish bilan cheklanishini ta’kidlash joiz. Lekin biz shaxsiy tajribamizdan kelib chiqib ijodkor yakkaxon ashula ijrochilarni yakka xonandalik san’atini rivojlantiruvchi muhim tayanch deb hisoblaymiz. Negaki, bunday toifa ijro etgan yangi va original ashulalar yillar sinovidan o‘tib an’anaviy ashulalarga aylanib boradi. Shu ma’noda biz tomonimizdan Xusrav Dehlaviy (XIV asr) so‘zi va Shavkat Mirzayev musiqasi bilan ijro etilgan quyidagi “Kerak yo‘qdur” ashulasi bugungi kunda an’anaviy ashulaga aylanganini misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin:

# Kerak yo'qdur

Sh.Mirzayev musiqasi
X.Dehlaviy g'azali




par vo - na kerak yo'q- dur.
Dedim: Ko'-zima jo qil, bir yoq-da qaro cho'- g'im,
Dedim: Ko'-zima jo qil, bir yoq-da qaro cho'- g'im,
Dey- di: Kira-man tan-ho ham-xo-na kerak yo'q- dur.
Dedim- ki: Bo'lay mah-ram ul maj-lisi ho -
sing- ga, Dedim- ki: Bu maj - lis-da de-vo-na kerak yo'q - dur.
Dedim: Kim erur ham-dam xaj-ring-da bu Hus -
rav- ga? Dedim: Kim erur ham-dam xaj-ring-da bu Hus - rav- ga?




Dedimki: Senga dildan bir xona kerak yo‘qdur,
Dediki: Xazinamga vayrona kerak yo‘qdur.

Dedim: So‘zing o‘tig‘a jonimni yoqay yorim,
Dediki: Charog‘imga parvona kerak yo‘qdur.

Dedim: Ko‘zima jo qil, bir yoqda qara cho‘g‘im,
Deydi: Kiraman tanho hamxona kerak yo‘qdur.

Dedimki: Bo‘lay mahram ul majlisi hosinga,
Dediki: Bu majlisda devona kerak yo‘qdur.

Dedim: Kim erur hamdam hajringda bu Xusravga,
Dediki: Xayolimdur, begona kerak yo‘qdir.

Ashulada ma’shuqning ishq hijronlari vositada oshiqni ma’naviy-ruhiy komillashtirishi badiiy tasvirlangan va ma’shuqning xayolida vasl va’dasi mavjudligi ashula mazmunining yechimidir. Xusrav Dehlaviyning ushbu mumtoz ashulasida professional xalq musiqa og‘zaki ijodi, an’anaviy ashula ijrochilik san’ati va yakka xonandaning mahorati mezonlarini baholovchi o‘ziga xos ijro uslublari ifodalangan. Ushbu ashulaning yakkaxon ijrosida avj nuqtalarning o‘ziga xos berilishi taqozo etiladi.

Bu o‘rinda ushbu masalaga oid mahoratni oshirishga doir XX asrning mashhur shoiri Chustiy g‘azali va Sh.Mirzayev musiqasi bilan ijro etiladigan “Kim keyin, kim ilgari” ashulasi matniga e’tiboringizni tortamiz.

# Kim keyin, kim ilgari

Sh.Mirzayev musiqasi
Chustiy g'azali




Go - hi oy ol - din bo - tar, go - hi quyosh un - dan burun,
Bu qiziq_ o - dat - li dun - yo, kim keyin, kim il - gari,
Bu qiziq_ o - dat - li dun - yo, kim keyin,
kim il - gari,
Sev hayo - ting - ni azi - zim, may - li un - ga mehr qo'y,
Sev hayo - ting - ni azi - zim,
may - li un - ga mehr qo'y, Lek mag' - rur - lan - ma as - lo
kim keyin, kim il - gari.


Bar-cha ham ket - may yashash-nı do-im ay - lar___ or - zu,
Bu faqat_ dıl - da taman- no kim keyin, kim il - gari,
Bu faqat_ dil - da taman no kim keyin,
kim il - gari,
Um-rimiz hud - di oqar
suv-dek oqib_ bor-moq-dadur, Yet- gusi_ man - zil - ga osh - no
kim keyin, kim il - gari. Kek-samu, sog' - mu kasal-mu,
yosh-mu bil - mas ket-magin, Bo'l- magan hal bu muam - mo


kim keyin, kim il - gari. Bo'l magan hal
bu muam - mo kim keyin, kim il - gari.
Bal - ki ket - mas
man demas - dan e - lu yurt - ni ro - zi qıl,
Men - mu yo sen - mu mabo - do
kim keyin, kim il - gari. Chus - ti - yo pay -
sal - ga sol - mas - dan diling - ni pok tut,
Bo'l mudom so - fu musaf - fo kim keyin, kim il - gari.




Barchamiz bu yo‘lda, ammo kim keyin, kim ilgari,
Bilmagan hech qaysi dono kim keyin, kim ilgari.

Gohi oy oldin botar, gohi quyosh undan burun,
Bu qiziq odatli dunyo, kim keyin, kim ilgari.

Sev hayotingni, azizim, mayli unga mehr qo‘y,
Lek mag‘rurlanma aslo, kim keyin, kim ilgari.

Barcha ham ketmay yashashni doim aylar orzu,
Bu faqat dilda tamanno, kim keyin, kim ilgari.

Umrimiz xuddi oqar suvdek, oqib bormoqdadur,
Etgusi manzilga oshno kim keyin, kim ilgari.

Keksamu sog‘mu kasalmu yoshmu, bilmas ketmog‘in,
Bo‘lmagan hal bu muammo kim keyin, kim ilgari.

Balki ketmasman demasdan elu-yurtni rozi qil,
Menmu yo senmu, mabodo, kim keyin, kim ilgari.

Chustiyo, paysalga solmasdan dilingni pok tut,
Bo‘l mudom sofu musaffo, kim keyin, kim ilgari.

# Bul ajab

Sh.Mirzayev musiqasi
A.Oripov she'ri




o'z - ni, Yet-ti nav - bat biz-ga deb chaq-nar e - mish
say- yor - lar. Yet - ti nav - bat biz - ga deb
chaq-nar e - mish say yor - lar. Fo - zilu
do- nish- e-li qo'l yuv-sa bu dun - yo - ga gar,
Vo ajab, oq-qan su-vin nush etar shayx xun- xor - lar.
Saj-da-ga bo-shing u-rib far-yodi chek-ma ey rafiq,
En - di sen top-gay-miding top- mab-diku
ag'- yor - lar. En - di sen top-gay-miding




YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI
Inv. № 1805
AXBOROT RESURS MARKAZI




Bul ajab xor kimsadin imdod so‘raydi xorlar,
Siz bemor ko‘ksiga bosh urmangiz ey bemorlar.

Gar falak burjida shams uyquga solsa o‘zni,
Yetdi navbat bizga deb chaqnar emish sayyorlar.

Fozilu donish eli qo‘l yuvsa bu dunyoga gar,
Vo ajab, oqqan suvin nush etar shayx xunxorlar.

Sajdaga boshing urib, faryod chekma ey rafiq.
Endi sen topgaymiding topmabdiku ag‘yorlar.

Kim berib dunyoga zar, abgor o‘lib qolgan o‘zi.
Kimki dorni buzdi gar, anga qurildi dorlar.

Kimsalar, badbin deya boqmang bukun Abdullaga
Tinglasa gohi yurib moziy elidin zorlar.

E’tibor berilsa, ijodkor yakkaxon ashula ijrochisining individual ijodkorligi uning faoliyatida nisbatan nazariy-amaliy samaradorligiga asos bo‘ladi. Keltirilgan namunaviy ashulalardan ma’lum bo‘ladiki, har bir yakkaxon ashula ijrochisi individual ijodkorlik va kuylash mahoratini egallashi uchun o‘ziga xos ashulalarni ijro qilishga asosiy e’tiborni qaratishi kerak. Buning uchun yakkaxon ijrochi ashula matni, kompozitor yoki bastakor, sozanda va soha mutaxassisi bilan hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq. Shu sababli, bunday san’atkorlar hamisha tinglovchi va uning bahosini his qilib turadi. Tinglovchining yakka xonandaga bo‘lgan bahosi bu ayni paytda, uning ustozi, bastakori va sozandalariga bo‘lgan munosabatni ham ifodalaydi. Bizning tajribamizda mazkur sinovlar o‘tganligi, ulardagi muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etganligimiz hamda ustoz san’atkorlar yordamida maqbul faoliyatga intilganimizni ta’kidlab o‘tish joiz.

Yakka xonandalikda umumiy ijro usulublarini o'zlashtirish va kuylovchining o'z individual ijro uslubini shakllantirishga butun faoliyat davomida amal qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. Yakka xonandalik (yakka ovozda kuylash) san'ati qanday tizim asosida paydo bo'lgan?
2. "An'anaviy yakka xonandalik san'ati" tushunchalari qanday ma'nolarga ega?
3. Yakka xonandalik san'atida asosiy ijro omili nima?
4. Ijodkor yakkaxon ashula ijrochisini qanday tasavvur qilasiz?

## 2. An'anaviy yakka xonandalik ijrochiligi tarixi

*Kalit so'zlar:* nazariya, tarix, ijrochilik, ta'lim, musiqa, ustoz, ijod, an'ana, uslub, mashhurlik, davr.

O'zbek musiqa san'atida an'anaviy yakka xonandalik san'ati qadimdan rivojlanib kelmoqda. Professional musiqa nazariyamiz asoschisi Abu Nasr Forobiy (X asr) "Katta musiqa kitobi" asarida saboq berganidek, musiqa san'ati ijrochiligining ikki turi mavjud:

1) ohanglarni kuylash vositasida ijro etish;

2) ohanglarni cholg'ular vositasida ijro qilish [1, 156-b.].

Ana shu birinchi tur an'anaviy yakka xonandalik ijro san'atining negizi hisoblanadi, shu sababli u qadimiy va zamonaviy san'at bo'lib kelmoqda. Buning uchta sababi bor:

1) an'anaviy yakka xonandalik san'atida inson ovozidagi tabiiy ohanglar ro'yobga chiqadi;

2) bunda kuylash jarayoni vaqt omilida kechadi;

3) kuylovchi harakatlar tizimidan foydalanadi: Aynan inson ovozidagi tabiiy ohang, vaqt va harakat uyg'unligi an'anaviy yakka xonandalik san'atining nazariy tayanchlari sifatida qabul qilinadi.

Musiqa san'atimizda an'anaviy yakka xonandalik ikki shaklda rivojlanib kelmoqda:

1) professional xalq og'zaki shaklida;

2) an'anaviy professional musiqa shaklida.

Professional xalq og'zaki shaklidagi an'anaviy yakka xonandalik san'atida qo'shiq kuylash ustozdan shogirdga uzatib kelinmoqda, bunda qo'shiq va kuyning muallifi ko'p hollarda xalq hisoblanadi [8, 31-b.]. Bu juda qadimgi davrlardan hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Misol uchun 1936-yili Buxoroda yozib olingan quyidagi "Osmonda oy o'ynaydi" qo'shig'iga e'tibor bering [13, 140-b.]:

### Osmonda oy o‘ynaydi




Osmonda oy o‘ynaydi,
Yerda choydish qaynaydi.
Yor sog‘inganim bilib,
Gulda bulbul sayraydi.

Xalq she’ri va kuyi bilan yakkaxon ijro etiladigan bu qo‘shiqning xususiyatlariga e’tibor bering:

a) matn o‘ziga xos musiqiy ohanglarga boy;

b) har bir so‘z o‘z o‘rnida ishlatilgan va kuylash jarayonida talaffuzda to‘siq yuzaga kelmaydi;

v) qo‘shiqning mazmuni obrazlar uyg‘unligida aks etgan: “Oy” – osmonning go‘zali, “choydish” – ishq, “Gul va bulbul” – ma’shuq va oshiq [7]. Qo‘shiqda lirik qahramonning his-tuyg‘ulari she’r matni va musiqa obrazlarining uyg‘unligi vositasida ifodalangan.

Qo‘shiqda ishqning insonni o‘tkinchi hoy-u havaslardan (xonumonlar) poklab, ulug‘ maqsadlar sari da’vat qilishi g‘oyasi ifodalangan. Chunki oshiq odam – insonparvarlik va ezgulikka intiladi.

Professional xalq og‘zaki shaklidagi an’anaviy yakka xonandalik san’atida muayyan mualliflarning asarlari ham xalq kuyi vositasida ijro etiladi va bunda aruz she’riy o‘lchovidagi asarlar ba’zan barmoq she’riy o‘lchoviga o‘tkazilib kuylanadi.

Zero, professional xalq og‘zaki shakllidagi an’anaviy yakka xonandalik qo‘shiqlarida lirik ruh ustuvor bo‘ladi va bu shakl bugungi kunda folklor – etnografik hamda estrada ansambllari ijrochilari tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirib kelinmoqda.

Bu o‘rinda bizni nisbatan an’anaviy professional shakldagi yakka xonandalik san’atining tadrijiy takomili qiziqtiradi[2]. Unga ko‘ra, mazkur shakldagi yakka xonandalik ijrochiligi X asrdan e’tiboran professional kuylovchilar, sozandalar va bastakorlar tomonidan rivojlantirib kelinmoqda. Bu shakl ikki ko‘rinishda taraqqiy etib kelmoqda: 1) an’anaviy ashula ijrochiligi, 2) maqom ashula ijrochiligi. Lekin bu ko‘rinishlar o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini va ular bir-birini taqozo etishini e’tibordan soqit qilmaslik lozim.

---

[2] Chunki o‘quv qo‘llanmada ushbu yo‘nalish asosiy obyekt sifatida tanlangan.

Professional an'anaviy yakka xonandalik san'atida X asrdan boshlab ashulalarning turkumlashtirilishi va ularning ijro yo'llari belgilanishi ko'zga tashlanadi. Abu Nasr Farobiyning (X asr) "Katta musiqa kitobi" asarida ta'kidlanishicha, an'anaviy yakka xonandalik san'ati ikki turda insoniyat musiqa san'atida rivojlanib kelgan:

1) Iste'dodsiz bo'lsa-da yakkaxon ijrochi tabiiy imkoniyatlariga tayangan holda kuylagan;

2) Iste'dod egasi bo'lgan yakkaxon ijrochi o'zidan avvalgi an'anaviy ashula ijrochiligini davom ettirgan va o'zidan keyingilarga uzatgan [1, 157-b].

Albatta, bu o'rinda Forobiy havaskor va professional yakka xonandalik ijrochiligi to'g'risida so'zlamoqda. Lekin har ikki holat bir-birini taqozo etadi. Shu sababli yakka xonandalik ijrochilik san'ati rivojida bu ikki shakl uyg'un qabul qilinishi kerak. Mutafakkir ashulaning tarannum (1), talqin (2) va tanag'um (tafsilot) (3) turlarini ta'kidlab ko'rsatadi [1,157-b]. Bunda tarannum lirik ruhdagi, talqin ijtimoiy-falsafiy mazmundagi va tanag'um holat hamda kechinmalarni ifodalovchi ashulalar turkumi ekanligini ta'kidlash joiz. Yakkaxon ijrochi ashulalarning bu turlarida o'ziga xos ijro yo'llari va mahoratini namoyon qilgan. Masalan, tarannum turkumidagi ashula ijro yo'li tanag'um turkumidagi ashula ijrosidan farq qilishi kerak, chunki birinchisiga sho'x va ikkinchisiga esa iltijo ruhi xosdir.

Kaykovus (XI asr) "Qobusnoma" asarida XI asrdan boshlab an'anaviy yakka xonandalik san'atiga bevosita Qur'oni karimni yoddan biluvchi shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan hofiz atamasini kiritdi [12,284-b]. Bu muhim jihat bo'lib, unga ko'ra, yakkaxon ashula ijrochisi musiqaga oid nazariy va amaliy bilimlardan to'liq xabardor bo'lishi lozim edi. Shu sababli XI asrdan XX asrning I-choragigacha bo'lgan davrdagi yakkaxon ashula ijrochilarining nafaqat xonanda (kuylovchi), balki bastakor va sozanda ham bo'lganligi kuzatiladi.

Kaykovus ashulalarning uch turkumini ta'kidlab ko'rsatadi:

1) Xusravona ashulalar – vazmin va ma'noli ohangda kuylanadi;
2) Hafif ashulalar – yengil va ruh berish ohangida ijro etiladi;
3) Tarona ashulalar – sho'x va lirik ruhda kuylanadi [12,285-b].

Mazkur masalalarga e'tibor berish, yakkaxon ashula ijrochisining ijroda o'ziga xos uslubga ega bo'lishi va kuylash mahoratini oshirib borishini ta'minlaydi. Chunki ashula turkumlari ijro uslublari qanday bo'lishiga yo'l ko'rsatib turibdi.

Zero, Safiuddin Urmaviy (XIII asr) "Kitobul-advor" (musiqa nazariyasi) asarida o'n ikki maqomni tizimlashtirishgach, an'anaviy yakka xonandalik san'ati maqom ijrochilik yo'nalishida rivojlanib bordi. Bu masala muhim bo'lib, unga ko'ra, yakkaxon ashula ijrochisi XIII asrdan boshlab an'anaviy va maqom ashula ijrochiligi asoslarini *uyg'un* o'zlashtirishi taqozo etildi. Bunday holatlarni hisobga olish yakka xonandalik ijrochilik san'atining tarixiy-tadrijiy takomilini to'liq idrok etishga olib keladi.

XIV–XV asrlarda an'anaviy yakkaxon ashula ijrochiligi o'ziga xos tarzda rivojlandi. Bu borada zamonasining mutafakkiri Abdurahmon Jomiy (XV asr) "Risolai musiqiy" asarida fikr yuritib deydi: "Esimda, o'smirlik davrimda men

musiqa ilmi bilan shug'ullangan edim va uning tarkibiy qismi sifatida xonandalikni ham o'rgangan edim. Bugun keksaygan chog'imda o'sha davrlarda kuylagan ashulalarimdan birini xirgoyi qilib berishni do'stlarimdan biri[3] so'radi. Shunda quyidagi satrlarni keltirib o'tishni lozim topdim:

Bizga haqning karami – jon, ruh va vujuddir,
Jonning vujudda bo'lishi mavjuddir.

Ayo sen kuylovchi, ma'nisiz ashulang bilan,
O'ylaysan jonsiz kimsalarga beraman jon.

Qabrda buning hisobi borki, kerak –
Ki, jonsizlarni qilgil jonsarak" [12,304-b].

Demak, Adburahmon Jomiyning fikricha, birinchidan, yakkaxon ashula ijrochisi tinglovchining joni, ruhi va vujudini harakatga keltirishi kerak: ikkinchidan, buning uchun ijrochi yuksak mahorat egasi bo'lishi shart. Jomiy yakkaxon ashula ijrochilariga o'n ikki maqomning aytim yo'llarini quyidagi xususiyatlarga asosan ijro etishni tavsiya qiladi [12,309-b].

| T/r | Maqomlar | Xususiyatlari |
|---|---|---|
| 1 | Ushshoq, Navo, Busalik | Kuch-quvvat va jasurlik uyg'otadi |
| 2 | Rost, Iroq, Isfahon, | Shodlik va quvonch uyg'otadi |
| 3 | Buzruk, Zirafgand, Rohaviy, Zangula, | Dard va alam uyg'otadi |
| 4 | Hijoz va Husayniy | Zavq va shavq uyg'otadi |

Mutafakkir mazkur maqomlarning sho'ba va ovozlaridagi xususiyatlarni ham ko'rsatgan, umuman uning fikricha, maqom ashulalari tinglovchiga "huzur-halovat beradi" [12,308-b]. Yakkaxon ashula ijrochisi bu xususiyatlarni hisobga olsa, kuylash jarayonida kutilgan maqsadga erishadi.

Shu tariqa XV asrdan XX asrning I-choragiga qadar an'anaviy yakka xonandalik san'atida yuksak mahoratli ashula (qo'shiq) ijrochilari faoliyatda bo'lib, bu san'atning rivojiga munosib hissa qo'shishdi. Bu o'rinda eng mashhur yakkaxon ashula ijrochilari to'g'risidagi ma'lumotlarga namuna sifatida e'tiboringizni tortamiz.

1. *Hofiz Basir (XV asr).* "Hazrat Dovud payg'ambardan keyin hech kim Hofiz Basirdek xonandalik qilolmagan. Bir gal u kuylaganida (ta'sirlangandan) to'rt kishi hushidan ketgan. U Xoja Tovus Devonning ta'ziyasi kuni Xoja Kirmoniyning g'azali bilan ijro etiladigan ashulani kuylab, quyidagi avj nuqtani ijro qilgan:

---

[3] Bizningcha, bu shaxs Jomiyning eng yaqin kishisi Alisher Navoiy (1441–1501), chunki u aynan Navoiyning taklifi bilan ushbu asarini yozgan.

G'amingdan kuymagan dilni o'tga tashlayman,
Sen uchun yonmagan jonni sovura boshlayman.

Shunda ayvon kunjidan bir musicha parvoz qilib o'zini Hofizning qo'yniga tashlagan va jon bergan. Ashula yakuniga qadar qirq kishi hushidan ketgan" [6, 11–12-b].

2. *Abdulloh Muborak (XV asr).* "Mashhur hofiz, O'zgantning Chortoq hududidan. Uning ovozi shu qadar shirador ediki, u kuylaganida yon-atrofdagi jonzotlar ham sukut saqlab qolardi"[14,33-b].

3. *Ustod Shodi (XV asr).* "Mashhur xonanda, bastakor va sozanda. U kuylaganida ashulaning avjini shu darajada ijro etadiki, undan keyingilar o'sha ashulani kuylaganida avj nuqtani uningdek berolmas edilar"[14,38-b].

4. *Xoja Abdulla (XV asr).* "Mavqeyi a'lo xonanda, u kuylaganida ovozi bulbulnikidek sadolanar edi va bundan barcha taajjub qilardi"[14,68-b].

5. *Hofiz Boboiy (XVII asr).* "Ovozi Arshga qadar yetadigan xonanda va bastakor. U Mavlono Kavkabiy tizimlashtirgan 12 maqom va uning 24 sho'basining barchasiga ashula yaratdi, u zot O'ratepalikdir" [14,69-b].

Mazkur keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, yakka xonandalik san'ati rivojida yakkaxon ashula ijrochilarining xizmati yuksak bo'lgan. Bunday ijrochilar yorqin ovoz sohibi, ijodkor, bastakor va sozanda bo'lganligi bilan ham diqqatni tortadi. Yakkaxon xonandalikning nufuzi ana shular bilan belgilanadi.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. An'anaviy yakka xonandalik ijrochiligi qadimda necha shaklda rivojlanib kelmoqda?
2. Professional yakkaxon ashula ijrochiligi tarixan necha ko'rinishda taraqqiy etgan?
3. O'rta asrlarda yakkaxon ashula ijrochisi yana qanday kasblarga ham ega bo'lgan?
4. Mashhur yakkaxon tarixiy hofizlardan kimlarni bilasiz?

## 3. An'naviy yakka xonandalik uslublari

*Kalit so'zlar:* ashula, ijro, uslub, usul, musiqa, individual, ta'lim, ko'nikma, malaka, mahorat, ijod, samara.

O'zbek ashula ijrochilik san'atida an'anaviy yakka xonandalik alohida o'rin tutadi. Chunki bu ijrochilikda xonandaning bor iste'dodi, ijro mahorati va kasbiy tajribasi to'liq namoyon bo'ladi. Ayni paytda, an'anaviy yakka xonandalikda ijro uslublari umum xonandalik uslublariga asoslanadi. Biroq yakka xonandalik ashula ijro (kuylash) uslublarini takomillashtirib borish imkoniyatlari kengligini eslatib o'tish joiz. Negaki "xonandalik uslubi – bu vokal musiqa asarlarini ijro etish yo'lidir [9, 287-b]. Shu sababli har bir yakkaxon ashula ijrochisi o'zining "Ijro

yo'li"ni kashf etish, uni takomillashtirish va avlodlarga uzatish imkoniyatlariga egadir.

An'anaviy yakka xonandalik sharq ashula ijrochiligida mashhur bo'lgan quyidagi uch uslubga tayanadi:

1) Binigi – bu dumog'idan chiqariladigan ovoz;
2) Guligi – tomoqdan chiqariladigan ovoz;
3) Ishkami – ko'krak-qorin diafragmasi vositasida hosil qilinadigan ovoz [9, 288-b].

Tajribali va o'z ovozini boshqara oladigan yakkaxon ashula ijrochisi bu uslublardan teng foydalanishi kuzatiladi. Bunga erishishning asosi tinimsiz va izchil mashq hamda ovoz ustida ishlashdadir. Aynan mashq va ovoz ustida ishlash xonandalik uslubini kutilgan darajada egallash kaliti hisoblanadi.

